ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(2)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 480 sahifa,
9-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika ta'limida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 10
Xalikov Akbar Tilovberdiyevich

Terminologik kompetensiya bo'lajak shifokor kasbiy kompetentligining komponenti sifatida 14
Namazova Munavvar Oltibekovna

Alisher Navoiy merosi asosida ota-onalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish 17
Rashidov Javohir Akram o'g'li

Negotiating Communicative Power and Social Hierarchy in English and Uzbek Literary Discourse: A Comparative Pragmalinguistic Study 22
Nodirabegim Xonturaeva

STEM yondashuvi asosida o'quvchilarda robototexnika ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari 31
Nasimova Hikoyat Nosirovna

O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari 37
Po'latova Barno Raximjon qizi

Ingliz va o'zbek o'rta asrlar adabiyotining shakllanishi va taraqqiyot omillari: qiyosiy-tipologik tahlil 41
Atanazarova Shoxida Baxramovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni sel texnologiyasi asosida shakllantirishning metodik imkoniyatlari 47
Normurotova Aziza Karim qizi

Tarjimonlik kompetensiyalarini rivojlantirish 52
Karayeva Karima Nabiyevna

Ixtisoslik modullari asosida bo'lajak logopedlarning diagnostik-korreksion kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 57
Sarimsoqova Maftuna Obidjon qizi

O'smir yoshdagi o'quvchilarda internet tobeligining psixologik omillari va uni bartaraf etish yo'llari 61
Toshpo'latova Nodira Xudjamurodovna

Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning psixologik asoslari 65
Jumanova Nasiba Sherboyevna

Kasbiy ta'limda "media va axborot savodxonligi" fanini o'qitishda o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari 69
Shomirzayev Baxtiyor Nazarovich

O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari 74
Po'latova Barno Raximjon qizi

Blended-learning modeli asosida iqtisodiyot fanining o'quv samaradorligini oshirish va o'quv natijalarining sifatini baholash 78
Abdimurodova Luiza Abdimurod qizi

Tpack modeli asosidagi mashqlar tizimi orqali talabalarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirish 85
Allamuratov G'ofur Ashurovich

Periphrasis as a Mechanism of Secondary Nomination in English And Uzbek: a Comparative Linguo-Semantic Study 90
Fazilov Odil

Fizika ta'limida STEAM yondashuvi asosida barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish 97
Omonova Sitora Zafar qizi

Raqamli ta'lim muhitida generativ sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish orqali pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 102
Rizayeva Sanobar Davlataliyevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish sinergetik ekotizimini adaptiv transformatsiyalash mexanizmlari 108
Supiyeva Buxolida Abduvaliyevna

Rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini baholashda psixologik-intellektual o'yin texnologiyalaridan foydalanish 113
To'raxo'jayeva Ra'no Rustam qizi

Matn bilan ishlashning zamonaviy texnologiyalari (10-sinf ona tili darslari misolida) 118
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Развитие познавательной активности учащихся 6 классов госпитальной школы в процессе самостоятельной работы по ботанике с использованием ИКТ 124
Баходирова Камола Комиловна, Хошимова Гулзода Ойбековна, Рустамова Нозима Фазлиддиновна

Развитие медиаменталитета студентов в условиях интеграции искусственного интеллекта и витагенных образовательных технологий: модель, методы и критерии оценки 130
Рустамова Нодира Рустамовна

O'quvchilarning aqliy mehnat kompetensiyasini rivojlantirishda tafakkur operatsiyalarining o'rni 137
Eshmonov Moxirjon Baxtiyor o'g'li

Yosh bokschilarni tezlik reaksiya dinamikasini rivojlantirish mexanizmlari 140
Malikzoda Abdulatif Abdubannon o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda pedagog-tarbiyachining roli 148
Rahmonqulova Xolida Bosimovna

10–12 yoshli futbolchilarda aerobik chidamlilikni rivojlantirishda maxsus suzish mashqlari kompleksining ilmiy-metodik asoslari 152
Akromov Shoxrux Jamshid o'g'li

Fikr tarbiyasiga oid nazariy yondashuvlar, konsepsiyalar va metodologik mexanizmlar 159
Ismoilova Gulrux Ulug'bekovna

Milliy identiklikning nazariy-konseptual asoslari va jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati 163
Salimov Doniyor Musurmonovich

Authentic Materials in Preschool English Teaching 169
Eshboeva Durdona Alisher qizi

Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish metodikasi 174
Adasheva Mavludaxon Umataliyevna

Axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishning zamonaviy metod va yondashuvlari: "resurs - metod - natija" modeli 180
Alijonova Shahnozaxon Kozimjon qizi, Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna

Ko'rishda nuqsoni bor shaxslar ijtimoiy integratsiyasining shaxsiylik omillari 184
Tohirova Mohigul Umir qizi

Oliy ta'limda moslashuvchan ta'lim shakllari sharoitida kompetensiyaga asoslangan o'qitish metodikasini raqamli transformatsiya qilish modeli 190
Xojimurodova Muxlisa Fayzulla qizi

Tayyorlov guruhidagi bolalarning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari 195
Sirojiddinova Nilufar Qodirali qizi

Bo'laklab integrallash formulasini muammoli ta'lim usulida o'rgatish metodikasi 200
Zaxriddinova Shaxlo Zahiriddin qizi, Arabova Jasmina Oybek qizi

Maktab matematika kursida trigonometriyani o'qitishda vizuallashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari 205
Turg'unpo'latova Shahnoza Sarvarjon qizi, Adashev Jobir Kadirovich

Internetdan samarali foydalanishga doir lokus nazoratni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari 211
Abduraimova Farida Ilhomovna

Neyropedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning o'quv-bilish qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 215
Abdixodirova Go'zal Erali qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Dual ta'lim asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmi: tarkibiy qismlar va baholash mezonlari 220
Akmalova Mohinur Zafar qizi

Fanlararo integratsiya vositasida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kreativ-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish 224
Asqarova Fayoza Jasur qizi

Ingliz tilini o'qitishda yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning sun'iy intellekt imkoniyatlari asosidagi metodik yondashuvlari 228
Axmedova Sarvinoz Hikmatovna

O'smir yoshidagi qizlarning xulqi og'ishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar 232
Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari 237
Jabborova Ro'za O'rinbayevna

Ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish 244
Mahamatnabiyeva Barno Abduqodir qizi

O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlar 250
Sadikova Asila Baxtiyor qizi

Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodikasi 255
Najimova Muxabbat Teshaboyevna

12–14 yoshli futbolchilarning jismoniy va psixologik holatini rivojlantirishda musobaqaoldi emotsional tayyorgarlikning ahamiyati 259
Nazarov Rustam Nurali o'g'li

Darslarni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish 263
Shamsiyeva Inobat Qosimjonovna

Tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 268
Egamberdiyeva Muqaddas Gupronqul qizi

Texnika oliy ta'lim tashkilotlarida obyektga yo'naltirilgan dasturlash fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish 273
Xodiyeva Shohsanam Baxtiyor qizi

Maktabgacha ta'limda kreativ pedagogik muhitni tashkil etish orqali bolalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish 280
Kadirova Dildora Nadjatbekovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari 285
Xamidova Malikaxon Oktamovna

Pedagogik improvizatsiya orqali nostandart ta'limiy vaziyatlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 291
Yuldashev Azamatjon G'ayratbek o'g'li

Talabalarda akademik mobillikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari 297
Shermanova Diyora Shakarboyevna

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: pedagogik imkoniyatlar va ehtimoliy xavflar 301
Abdullayeva Sarvinoz Ulug'bek qizi

Mustaqil ta'limni tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mazmuni 306
Mamurova Dilfuza Islomovna

Maktabgacha ta'limda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari 310
Rustamova Mavluda Erkinovna, Sharafutdinova Durdona Akmelevna

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati 314
Xamdamova Gulhayo Xoshimovna

Национально-ориентированная методика обучения русской грамматике учащихся-билингвов в условиях Узбекистана 318
Кадирова Зарина Фархатовна

Взаимосвязь лингвистических знаний и педагогических технологий в обучении русскому языку иностранных студентов 326
Яллабоева Зарина Бобохон кизи

Alyuminiy mavzusini o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati 330
Abdisattarova Elmira Abdijamilovna, Bazarbaeva Aysanem Baxadir qizi

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (K. Otaniyozov ijodi misolida) 333
Ruzmetov Xayitboy Kaxramonovich

Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning ijodiy (kreativ) qobiliyatlarini rivojlantirish 337
Sharipova Zarnigor Zarif qizi

Kasbiy ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining boshqaruv va marketing kompetensiyalarini bevosita faoliyat jarayonida takomillashtirish metodikasi 342
Tursunova Shoxista Hayitboyevna

Kasbiy ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishning pedagogik va boshqaruv mexanizmlari 346
Urazbaeva Aziza Uktamovna

Informatika darslarida yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi 351
Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining pedagogik mohiyati va ularning klassifikatsion xususiyatlari 354
Ergasheva Fazilat

Shaxs, oila munosabatlarida rashkning jinsiy tafovutlanishi 359
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna

Fransuz va o'zbek tillaridagi fe'llarning monosemantik va polisemantik ifodalanishi 364
Bekmetova Munisa Karimbayevna

Ilmiy-texnik atamalarni izohlashda kontekstning o'rni 370
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna

Raqamlashtirish sharoitida adabiyot o'qitishni takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar 374
Oymatova Nilufar Mirjamolovna

Maktabgacha ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va korreksion-rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish 377
Eshmaxmadova Aziza Xusnitdinovna

Refleksiv texnologiyalar vositasida akademik halollikni rivojlantirishning pedagogik tizimi va metodikasi 382
Obbosova Mukhtasarkhon Bakirali qizi

O'zbek va turk tillarida ko'z/göz somatik leksemalarining semantik xususiyatlari va elektron lug'atda modellashtirish 386
Feruza Rahmatova, Rahmatova Feruza

Bo'lajak tarbiyachilarning persepsiv kompetensiyasini shakllantirish metodikasi 392
Murodova Farangis G'anisherovna

Andragogik yondashuv asosida xotin-qizlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish 399
Suyunova Oysanam Orif qizi

Zamonaviy yoshlarning psixik rivojlanishida ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati 403
Asila Akbaraliyeva Tojiddinovna, Nazarova Sevinch

Методика формирования цифровой педагогической компетентности будущих педагогов в проектировании воспитательной деятельности обучающихся 407
Г. Н. Бердиханова

Developing Professional Vocabulary of Music Students in English Through Context-Based Learning 413
Akbarova Moxichexra Rifatillayevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Imkoniyati cheklangan yosh nayza uloqtiruvchilarning kuch kobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi 419
Baxshullayeva Maloxat Baxtiyor qizi

Tibbiyot xodimlarida kasbiy stressni erta aniqlashning klinik-psixologik mexanizmlari va psixoprofilaktika modelini takomillashtirish 424
Egamov Egamberdi Azimjon o'g'li

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari... 428
Karimov Inoyat Allamovich

Raqamli ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati 435
Komilova Zulxumor Xokimovna

Oliy ta'limda hunarmandchilik va sun'iy intellekt texnologiyalari integratsiyasi asosida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik asoslari..... 440
Mukumova Feruza Xudoyqulovna

O'quvchilarda formativ baholash sharoitida cholg'u ijrochilikka oid kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari 445
Nazarova Sabrina Allaberdi qizi

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va LMS (Learning Management System) tushunchasi: Moodle, Google Classroom 451
Rabbimova Munisxon Mustafoyevna

Muhandislik ta'limida abstrakt tafakkurni rivojlantirish muammosi va grafik dasturlash muhitlarining xorijiy tajribasi tahlili 456
Umarova Benazir Botirjon qizi

Kombinatorik masalalarni algoritmlashtirishga o'rgatishda sun'iy intellekt asosidagi qo'llab-quvvatlash modeli: o'zbek manbalari tahlili va modelni asoslash 460
Valijonov Sarvarbek G'ofurjon o'g'li

Oilaviy hayotning turli bosqichlarida kasbiy stress va emotsional regulyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy-psixologik asoslari..... 464
Yarashova Sitora Yermamatovna

Bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy-tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish 470
Atabayeva Muxlisa Erkin qizi

Oliy ta'lim talabalarida matematik muammolarni tadqiqiy tahlil qilish asosida ilmiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-nazariy asoslari 474
Qayumova Barno Abdishukurovna

"KOMPETENSIYA" VA "KOMPETENTLIK" TUSHUNCHALARINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA ULARNING KLASSIFIKATSION XUSUSIYATLARI

UDK: 37.0.371.378

Ergasheva Fazilat
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi
72-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

ORCID: 0009-0008-4096-1435

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy pedagogikaning asosiy tushunchalari bo'lgan "kompetensiya" va "kompetentlik" kategoriyalarining falsafiy, pedagogik va psixologik mohiyati yoritilgan. Ikki tushuncha o'rtasidagi mazmuniy, tarkibiy va funksional o'ziga xos jihatlar xorijiy hamda milliy olimlarning qarashlarini qiyoslash asosida ko'rsatilgan. Kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlaridan iborat modeli bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini tayyorlash misolida bayon etilgan, kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish orqali kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kalit kompetensiyalar, pedagogik diagnostika, kredit-modul tizimi, refleksiya.

Abstract: The article examines the philosophical, pedagogical and psychological essence of the concepts of "competence" and "competency", which form the core of the conceptual framework of modern pedagogy. By comparing the views of foreign and national scholars, it highlights the semantic, structural and functional characteristics of the two concepts. A model of professional competency consisting of motivational, cognitive, practical and reflective components is presented using the training of future preschool educators as an example, and mechanisms for developing competency through students' self-directed learning in the credit-modular system are substantiated.

Key words: competence, competency, competence-based approach, professional competency, preschool education, educator, key competencies, pedagogical diagnostics, credit-modular system.

Аннотация: В статье раскрывается философская, педагогическая и психологическая сущность понятий "компетенция" и "компетентность", составляющих основу понятийного аппарата современной педагогики. На основе сопоставления взглядов зарубежных и отечественных учёных показаны смысловые, структурные и функциональные особенности этих понятий. Модель профессиональной компетентности, включающая мотивационный, когнитивный, практический и рефлексивный компоненты, представлена на примере подготовки будущих педагогов дошкольного образования; обоснованы механизмы развития компетентности через организацию самостоятельной работы студентов в кредитно-модульной системе.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, компетентностный подход, профессиональная компетентность, дошкольное образование, воспитатель, ключевые компетенции, педагогическая диагностика, кредитно-модульная система.

KIRISH

Globallashuv, raqamlashuv va mehnat bozori talablarining tez o'zgarishi ta'lim tizimini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. "Bilim, ko'nikma, malaka" (BKM) uchligiga tayangan an'anaviy model ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur modelni kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashtirish esa o'quvchilarning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish va turli kasbiy hamda hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bugungi jamiyatda bilimlarini turli vaziyatlarda samarali qo'llay oladigan, kasbiy va hayotiy muammolarga maqbul yechim topadigan hamda o'zgarishlarga moslashuvchan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son[1] Qonuni va Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1; 2]. Bu yondashuv ta’lim jarayonini ta’lim oluvchining shaxsiy va kasbiy yutuqlarini rivojlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim sohasida ham me’yoriy hujjatlar bola rivojlanishining kutilayotgan natijalarini aniq belgilashni nazarda tutadi [3]. Bunday natijalarga erishishda pedagogning kasbiy kompetentligi muhim o‘rin tutadi. Tarbiyachi bolalarda kompetensiyalarning dastlabki asoslarini shakllantirish bilan birga, o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirib borishi lozim. Shu sababli bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nazariya va amaliyotda “kompetensiya” hamda “kompetentlik” atamalarining mazmuni turli ilmiy yondashuvlar asosida talqin etiladi. Ayrim tadqiqotlarda ushbu tushunchalar o‘zaro yaqin ma’noda qo‘llanilsa, boshqa ilmiy qarashlarda ularning mazmuniy va funksional xususiyatlari alohida yoritiladi. Bu esa mazkur tushunchalarni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda ta’lim dasturlarini loyihalash, tayyorgarlik darajasini baholash va pedagogik diagnostikani takomillashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi - “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining kelib chiqishi hamda o‘zaro nisbatini aniqlash, kasbiy kompetentlikning tarkibiy modelini asoslash va uni kredit-modul tizimida shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ko‘rsatishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur kategoriyalarning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ularning rivojini uch yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin: AQSh va G‘arbiy Yevropa tadqiqotlari, xalqaro loyihalar hamda MDH va milliy pedagogik maktablar.

Lingvistik va psixologik yondashuvlar

Nazariy asoslar dastlab lingvistikada yaratilgan. N. Chomsky (1965) “Aspects of the Theory of Syntax” asarida tilni bilish (competence) bilan uni nutqda qo‘llash (performance) o‘rtasidagi farqni ko‘rsatdi [4]. Unga ko‘ra, kompetensiya - ichki, potensial bilim, ijro esa uning amaliyotdagi ko‘rinishidir.

Keyinchalik bu g‘oya mehnat psixologiyasida ham rivojlantirildi. D. McClelland (1973) kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatni baholashda an’anaviy aql-zakovat (IQ) testlari bilan bir qatorda shaxsning amaliy kompetensiyalarini ham hisobga olish muhimligini ta’kidlab, kompetensiyalarni baholashga asoslangan yondashuvni taklif qildi [5]. Ushbu yondashuv shaxsning bilim va intellektual imkoniyatlarini amaliy faoliyatdagi natijalar bilan uyg‘un holda o‘rganishga xizmat qiladi. J. Raven (1984) esa kompetentlikni turli sohalarda samarali harakat qilishni ta’minlovchi murakkab tuzilma sifatida talqin qildi; unda ko‘nikmalar bilan birga shaxsiy qadriyatlar va motivatsiya muhim o‘rin tutadi [6].

Xalqaro loyihalar va standartlar

XX asr oxiri – XXI asr boshida Yevropa oliy ta’lim makonida Tuning loyihasi [7], Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) doirasida esa DeSeCo (Definition and Selection of Competencies) loyihasi amalga oshirildi [8]. Natijada kompetensiyaviy yondashuv ko‘plab ta’lim tizimlarining tayanch g‘oyalaridan biriga aylandi. DeSeCo kalit kompetensiyalarni uch guruhga ajratdi: vositalardan (til, axborot, texnologiya) interaktiv foydalanish; turli guruhlarda muloqot va hamkorlik qilish; mustaqil harakat qilish va o‘z hayot yo‘lini belgilash.

MDH va milliy pedagogik maktablar

MDH pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuvni asoslashda I. A. Zimnyaya, A. V. Xutorskoy, V. A. Slastenin, E. F. Zeer kabi tadqiqotchilar yetakchi o‘rin tutadi. I. A. Zimnyaya (2003) kompetensiyani bilim, amaliy tajriba va qadriyatlarga tayanuvchi ichki, potensial psixologik shakllanish deb, kompetentlikni esa shu potensialning faoliyatdagi real namoyon bo‘lishi deb belgilaydi [9]. A. V. Xutorskoy (2003) mazkur tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini “oldindan berilgan me’yor” va “shaxsning shakllangan sifati” nuqtayi nazaridan izohlaydi [10]:

- kompetensiya - ta’lim oluvchi muayyan sohada samarali faoliyat yuritishi uchun oldindan belgilangan, egallanishi zarur bo‘lgan obyektiv me’yor va maqsad;
- kompetentlik - shaxsda shakllangan subyektiv sifat, ya’ni tegishli kompetensiyalarga egalik qilishi va ularni faoliyatda tajriba orqali namoyon etishi.

O‘zbekiston pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv va kasbiy kompetentlik masalalari N. A. Muslimov, B. S. Abdullaeva, U. Inoyatov, Sh. E. Kurbonov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

1 https://lex.uz/docs/-5013007

N. A. Muslimov (2013) bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini tadqiq etib, uni mutaxassisning bilimi, ko'nikma va malakasi, faoliyatdagi subyektiv tajribasi hamda kasbiy mas'uliyatining birligi sifatida ta'riflaydi [11].

B. S. Abdullaeva (2006) ta'limda uzviylikni ta'minlash va talabalar tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslarini ochib bergan [12]. Mazkur tadqiqotlar oliy va kasb ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ilmiy qarashlarni maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoniga tatbiq etish esa mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada boyitish va takomillashtirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. **Semantik va etimologik tahlil:** "kompetensiya" va "kompetentlik" atamalarining lotincha ildizlari (competentia, competens) hamda ma'noviy o'zgarishi qiyosiy o'rganildi.
2. **Qiyosiy va kontent-tahlil:** xorijiy hamda milliy ilmiy adabiyotlar, pedagogik konsepsiyalar va davlat ta'lim standartlaridagi kompetensiyaviy talablar o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi.
3. **Tizimli va strukturaviy-funksional yondashuv:** kasbiy kompetentlik yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning komponentlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlandi.
4. **Modellashtirish:** kasbiy kompetentlikning tarkibiy modeli va kompetensiyadan kompetentlikka o'tish bosqichlari tasvirlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida ikki kategoriyaning mohiyati, ularni farqlovchi belgilar va ta'lim jarayonida kompetensiyadan kompetentlikka o'tish mexanizmi aniqlashtirildi.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining farqlari

Qiyosiy-mantiqiy tahlil ularning eng muhim farqi tashqi me'yor bilan ichki shaxsiy sifat o'rtasidagi nisbatda ekanini ko'rsatdi.

Kompetensiya - ta'lim oluvchiga yoki bo'lajak mutaxassisga tashqaridan qo'yiladigan me'yoriy talablar, sohaviy standartlar, bilim, ko'nikma va faoliyat usullari majmui. U davlat ta'lim standartlarida, malaka talablarida va fan dasturlarida aks etadi hamda egallanishi lozim bo'lgan imkoniyatni bildiradi.

Kompetentlik - shaxsning ichki, integrativ, kasbiy sifati bo'lib, muayyan kompetensiyalarning o'zlashtirilganlik darajasini va ularni nostandart, muammoli vaziyatlarda mas'uliyat bilan qo'llay olish tajribasini ifodalaydi.

Qisqacha aytganda, kompetensiya - berilgan me'yor, kompetentlik - erishilgan natija. Buni maktabgacha ta'lim misolida ko'rish mumkin: standartda tarbiyachiga qo'yilgan "bolalar bilan o'yin faoliyatini tashkil etish" talabi kompetensiyadir; tarbiyachining shu faoliyatni real guruhda, kutilmagan holatlarda ham samarali amalga oshira olishi esa uning kompetentligidir (1-jadval).

1-jadval: **Kompetensiya va kompetentlikning taqqoslama tavsifi**

Taqqoslash mezonlari	"Kompetensiya" (competence)	"Kompetentlik" (competency)
Ontologik maqomi	Obyektiv, me'yoriy, o'zgarmas	Subyektiv, shaxsiy, o'zgaruvchan
Pedagogik roli	Ta'limning maqsadi, mazmuni va standarti	Ta'limning real natijasi va erishilgan darajasi
Mavjudlik shakli	Standartlar, dasturlar, malaka talablarida	Shaxsning tafakkuri, xulq-atvori va amaliyotida
Tuzilmaviy xarakteri	Bilim, ko'nikma va usullar majmui	Motivatsiya, kognitsiya, amaliyot va refleksiya sintezi
O'lchash va baholash	Testlar, nazorat ishlari (standart bilimlar)	Situatsion topshiriqlar, keyslar, amaliyot tahlili
Vaqtga bog'liqligi	Muayyan davr uchun belgilangan norma	Doimiy rivojlanuvchi, shakllanuvchi jarayon

Atamalarni aralashtirish amaliy oqibatlarga ega. Agar standart (kompetensiya) natija (kompetentlik) deb qabul qilinsa, baholash faqat hujjatda ko'rsatilgan talablarning bajarilganini tekshirish bilan cheklanadi, shaxsdagi real o'zgarish esa e'tibordan chetda qoladi. Aksincha, ikkala tushuncha farqlansa, standart ta'lim maqsadini belgilaydi, kompetentlik esa shu maqsadga qanchalik erishilganini ko'rsatuvchi ko'rsatkich vazifasini bajaradi.

Kompetensiyalar va kompetentlikning klassifikatsiyasi

Maqola sarlavhasida ko‘rsatilgan klassifikatsion jihat adabiyotlar tahlilida alohida o‘rin tutadi. A.V. Xutorskoy kompetensiyalarni umumiylik darajasiga ko‘ra uch pog‘onaga ajratadi [10]: kalit kompetensiyalar ta’limning umumiy mazmuniga tegishli bo‘lib, har bir ta’lim oluvchi uchun zarur; umumfan kompetensiyalari bir qator fanlar yoki ta’lim sohalari doirasida shakllanadi; fan kompetensiyalari esa muayyan fan yoki faoliyat turiga xosdir. DeSeCo loyihasida ajratilgan uch guruh kalit kompetensiyalar pog‘onasiga mos keladi [8]. Kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan tahlil quyidagi tasnifni asoslash imkonini beradi:

- umumkasbiy kompetensiyalar (barcha pedagoglar uchun umumiy: muloqot, hamkorlik, axborot bilan ishlash);
- maxsus kasbiy kompetensiyalar (yo‘nalishga xos: maktabgacha ta’limda bola rivojlanishini kuzatish, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, oila bilan hamkorlik qilish);
- shaxsiy kompetensiyalar (o‘zini rivojlantirish, refleksiya).

Kompetentlikning shakllanganlik darajasiga ko‘ra uch bosqichni ajratish mumkin: reproduktiv (me’yorni namunaga tayanib bajarish), produktiv (standart vaziyatlarda mustaqil qo‘llash) va ijodiy (nostandart vaziyatda yangi yechim topish). Bu bosqichlar kompetentlikni diagnostika qilish mezonlarini ishlab chiqishda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlikning integrativ modeli

Kompetentlik bilim va ko‘nikmalar yig‘indisidan iborat emas, u shaxsning murakkab kasbiy tuzilmasidir. Tahlil uning to‘rt o‘zaro bog‘liq komponentini ajratish imkonini berdi:

1. **Motivatsion-qadriyatli komponent:** tanlangan kasbga munosabat, ichki va tashqi motivlar, kasbiy burch va mas’uliyatni anglash (masalan, bolalar bilan ishlashga qiziqish, bola shaxsini hurmat qilish).
2. **Kognitiv-ma’lumotli komponent:** kasbiy faoliyatning nazariy va metodologik asoslarini bilish, axborot bilan ishlash, tanqidiy va tizimli fikrlash (masalan, bolalar yosh psixologiyasi va rivojlanish qonuniyatlarini bilish).
3. **Amaliy-faoliyatli komponent:** nazariy bilimni standart va nostandart topshiriqlarni bajarishda samarali qo‘llash tajribasi (masalan, mashg‘ulot va o‘yinlarni loyihalash va o‘tkazish).
4. **Refleksiv-baholash komponenti:** o‘z faoliyati va natijalarini xolis tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini baholash, o‘zini tuzatish hamda doimiy kasbiy o‘sishga intilish.

Kredit-modul tizimida kompetentlikni shakllantirish mexanizmlari

Kredit-modul tizimida auditoriya soatlari qisqarib, mustaqil ta’lim ulushi ortadi. Shu sababli kompetensiyalarni talabaning real kompetentligiga aylantirish talabalar mustaqil ta’limini (TMT) qanday tashkil etilishiga bevosita bog‘liq bo‘lib qoladi: talaba o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtira va boshqara olishi zarur. Buning uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish taklif etiladi:

1. **PBL (Problem-Based Learning) va keys-stadi:** tayyor nazariy faktlar o‘rniga real kasbiy vaziyat taqdim etiladi (masalan, bolaning guruhga moslashishidagi qiyinchilik yoki bolalar o‘rtasidagi nizo holati).
2. **STEAM va loyihaga yo‘naltirilgan ta’lim:** fanlararo loyihalar (mashg‘ulot ssenariysi, rivojlantiruvchi muhit loyihasi) talabalarda kompleks va jamoaviy kompetensiyalarni shakllantiradi.
3. **Pedagogik diagnostika, rubrika va portfolio:** baholashni an’anaviy ball to‘plashdan talabaning o‘sish va shakllanganlik darajasini ko‘rsatadigan rubrikalar hamda portfolio tizimiga o‘tkazish zarur.

Bu mexanizmlar alohida emas, tizim sifatida ishlashi kerak: keys orqali talaba muammoni anglaydi, loyiha orqali yechim topadi, portfolio va refleksiya orqali o‘z natijasini baholaydi. Bu zanjir yuqorida ajratilgan motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlarning izchil rivojlanishiga mos keladi. Shuningdek, TMT topshiriqlarini bola bilan ishlash amaliyoti bilan bog‘lash (kuzatuv kundaligi, mashg‘ulot tahlili) nazariy bilimning amaliy kompetentlikka aylanishini tezlashtiradi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, maqola nazariy tahlilga asoslanadi. Taklif etilgan klassifikatsiya va kasbiy kompetentlik modeli pedagogik eksperiment orqali sinovdan o‘tkazilishi, ularning samaradorligi esa mezonlar asosida o‘lchanishi kerak. Ayniqsa maktabgacha ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak tarbiyachilarning refleksiv va amaliy komponentlari qanday dinamikada rivojlanishini kuzatish keyingi tadqiqotlarning muhim vazifasi bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, nazariy tahlil oliy ta’lim muassasalari amaliyoti uchun aniq xulosa beradi: o‘quv rejalari va sillabuslarni loyihalashda “nimani o‘rgatamiz” (kompetensiya) va “nimaga erishdik” (kompetentlik) savollarini alohida qo‘yish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Atamalarni ajratish zarurati.** "Kompetensiya" va "kompetentlik"ni aniq farqlash lozim: kompetensiya - davlat, jamiyat va mehnat bozori qo'ygan obyektiv me'yor va ta'lim standarti; kompetentlik - shu me'yorlarni o'zlashtirib, ularni real faoliyatda qo'llay oladigan shaxsning integrativ sifati.
2. **Tuzilmaviy murakkablik.** Kasbiy kompetentlik motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlarning uzviy birligidan iborat.
3. **Mustaqil ta'limning o'rni.** Kredit-modul tizimida kompetentlikni rivojlantirishning asosiy omili - talabalar mustaqil ta'limini to'g'ri loyihalashdir.

Amaliy tavsiyalar:

- Oliy ta'lim muassasalari uchun: malaka talablari, fan konsepsiyalari va sillabuslarda o'quv natijalari hamda erishiladigan kompetentlik darajalarini aniq diagnostik ko'rsatkichlar bilan berish;
- o'qituvchilar uchun: ta'lim jarayonida muammoli, interaktiv, loyihaga yo'naltirilgan va simulyatsion texnologiyalarni keng qo'llash, bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik amaliyotda real vaziyatlarda ishlashga o'rgatish;
- baholash bo'yicha: amaliy, situatsion va refleksiv kompetentlik darajasini aniqlaydigan mezonli baholash (rubrika va portfolio) tizimini to'liq joriy etish.

Keyingi tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim pedagogi kompetentligining diagnostik mezonlarini eksperimental asoslash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son[2] Qonuni. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son[3] Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son[4] Qonuni. – Toshkent.
4. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 252 p.
5. McClelland D. C. Testing for Competence Rather Than for "Intelligence" // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28(1). – P. 1–14.
6. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H. K. Lewis & Co. Ltd., 1984. – 251 p.
7. Tuning Educational Structures in Europe. Educational Structures, Learning Outcomes, Educational Credits and Competences. – Bilbao: University of Deusto, 2002. – 178 p.
8. Rychen D. S., Salganik L. H. (eds.). Defining and Selecting Key Competencies. – Seattle: Hogrefe & Huber, 2001.
9. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – Москва, 2003. – № 5. – С. 34–42.
10. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
11. Muslimov N. A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2013. – 128 b.
12. Abdullaeva B. S. Uzviylashtirilgan ta'lim tizimida talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishning metodologik va metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2006. – 312 b.

2 https://lex.uz/docs/-5013007
3 https://lex.uz/docs/-4545884
4 https://lex.uz/docs/-4646908

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.